O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINI YASHASH JOYI VA TURGAN JOYI BO‘YICHA RO‘YXATDAN O‘TKAZISH TARTIBI

podpolkovnik **Otayev O‘tkirbek Matyoqubovich**
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti
Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi, dotsent
Tel: 97-775-08-83
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20095537

Annotasiya: Mazkur maqolada, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 10-iyuldagi O‘RQ-1074-sonli «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi Qonuni bilan belgilangan yangi huquqiy tartibotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olishdagi cheklovlarning bekor qilinishi, ro‘yxatga olish jarayonlarining xabardor qilish tartibiga o‘tkazilishi hamda raqamli texnologiyalar (E-mehmon, My.gov.uz) imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola yakunida ushbu qonunning fuqarolarning erkin harakatlanish huquqlarini ta’minlashdagi ahamiyati yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Qonun, yashash joyi, turgan joyi, ro‘yxatdan o‘tkazish, doimiy propiska, xabardor qilish tartibi, E-mehmon, migrasiya, raqamlashtirish, konstitusiyaviy huquq..

2025 yil 10 iyuldagi O‘RQ-1074-sonli Qonunning qabul qilinishi O‘zbekiston migrasiya qonunchiligida tarixiy burilish bo‘ldi. Yangi tartibga ko‘ra, Toshkent shahri va viloyati uchun amal qilgan 12 toifali cheklovlarning bekor qilinishi fuqarolarning yashash joyini tanlash erkinligini to‘liq kafolatlaydi. Ro‘yxatga olish jarayonining Ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Davlat xizmatlari markazlari va Yagona portal (My.gov.uz) orqali amalga oshirilishi ma’muriy to‘siqlarni minimallashtirdi. Ushbu islohotlar mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini oshirish va inson huquqlarini himoya qilishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi qonunchilik O‘RQ 1074-son Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Ushbu Qonunning **maqsadi** — O‘zbekiston fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O‘zbekiston fuqarolarini yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish asoslari — O‘zbekiston fuqarolarining qonuniy asoslarda O‘zbekiston bo‘ylab erkin harakatlanishga, turar va yashash joyini tanlashga doir konstitutsiyaviy huquqini, boshqa huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni, shuningdek ular tomonidan boshqa shaxslar, davlat va jamiyat oldidagi majburiyatlar bajarilishini ta’minlash **maqsadida** O‘zbekiston fuqarolarini yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish amalga oshiriladi. O‘zbekiston fuqarolarining yashash joyi yoki turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tmaganligi, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ularning huquqlari va erkinliklarini cheklash uchun asos bo‘lmaydi.

Yashash joyi deganda — shaxs mulkdor sifatida, ijara (ikkilamchi ijara), tekin foydalanish shartnomasi bo‘yicha yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra doimiy ravishda (asosan) yashaydigan hamda o‘zi yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan uy, kvartira, xizmat turar joyi, maxsus uy (yotoqxona, vaqtinchalik uy-joy fondi uyi yoki nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uy, shuningdek bolalar uyi yoki boshqa maxsus maqsadli uy) yoxud boshqa turar joy tushuniladi.

Turgan joy deganda — Shaxs qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda vaqtincha yashaydigan joylashtirish vositasi, davolash muassasasi yoki shaxsning yashash joyi hisoblanmaydigan turar joy tushuniladi.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan shaxslarning yoki vasiylikdagi shaxslarning qonuniy vakillari — tegishincha ota-onalari (yolg‘iz otasi yoki onasi), farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy mazkur voyaga yetmagan shaxslarning yoki vasiylikdagi shaxslarning yashash joyi hisoblanadi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n olti yoshga qadar bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarning yoki homiylikdagi shaxslarning qonuniy vakillari — tegishincha ota-onalari (yolg‘iz otasi yoki onasi), farzandlikka oluvchilari yoki homiylari yashaydigan joy mazkur voyaga yetmagan shaxslarning yoki homiylikdagi shaxslarning yashash joyi hisoblanadi.

vasiylikdagi yoki homiylikdagi bola — o‘ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan bola;

yolg‘iz ota yoki ona — bolani tarbiyalayotgan ota (ona), basharti bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi rasmiy hujjatlarda ota-onasidan biri haqidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa yoxud bunday ma’lumotlar bolani tarbiyalayotgan otaning (onaning) so‘zlariga asosan kiritilgan bo‘lsa;

davolash muassasalari — sanatoriylar, davolash pansionatlari, davlat klinikalari va xususiy klinikalar, shifoxonalar, kasalxonalar va boshqa tibbiyot muassasalari;

joylashtirish vositalari — mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualar, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uylari, o‘tov va chodirli oromgohlar, sanatoriylar hamda mehmonxona xizmatlari (joylashtirish bo‘yicha xizmatlar) ko‘rsatiladigan boshqa obyektlar;

turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish — O‘zbekiston fuqarosining turgan joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan tartibda qayd etish;

yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish — O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan tartibda qayd etish;

O‘zbekiston Respublikasining xorijda doimiy yashovchi fuqarosi — O‘zbekistondagi yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganligi bekor qilingan hamda xorijga doimiy yashash uchun chiqib ketishga doir ruxsatnoma rasmiylashtirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

“E-mehmon” avtomatlashtirilgan axborot tizimi— joylashtirish vositalarida va davolash muassasalarida foydalaniladigan, joylashtirish vositalarida yashovchi yoki davolash muassasalarida statsionar sharoitda davolanayotgan shaxslarni turgan joyi bo‘yicha xabardor qilish tartibida ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

“E-xabar berish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi — shaxslarni turgan joyi bo‘yicha xabardor qilish tartibida ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

“Manzil” avtomatlashtirilgan axborot tizimi — shaxslarni yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

Yashash joyi va turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishning asosiy qoidalari

O‘zbekiston fuqarolari yashash va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishi shart.

Shaxslarning yashashi uchun uy-joy maydonini beruvchi turar joy mulkdori yoki turar joyni tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan shaxs ushbu shaxslarni yashash joyi yoki turgan joyi bo‘yicha o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazishi kerak.

Joylashtirish vositalarida turgan shaxslarni turgan joyi bo‘yicha xabardor qilish tartibida ro‘yxatdan o‘tkazish joylashtirish vositalarining mas’ul xodimlari tomonidan ***“E-mehmon”*** tizimi orqali amalga oshiriladi.

Davolash muassasalarida statsionar sharoitda davolanayotgan shaxslarni turgan joyi bo‘yicha xabardor qilish tartibida ro‘yxatdan o‘tkazish ushbu muassasalarning mas’ul xodimlari tomonidan ***“E-mehmon”*** tizimi orqali amalga oshiriladi.

FHDY organi tomonidan bolaning tug‘ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvini ***“FHDYning yagona elektron arxivi”*** axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida ushbu ma’lumotlar mazkur axborot tizimi orqali ota-onasining yashash joyiga muvofiq bolani yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish uchun avtomatik ravishda ***“Manzil”*** tizimiga bir vaqtning o‘zida kelib tushadi.

O‘n olti yoshga to‘lmagan bolani yashash joyi (turgan joyi) bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish uning ota-onasining yoki vasiy (homiy)sining arizasiga asosan ularning yashash joyi (turgan joyi) bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tarbiya, davolash muassasalarida va boshqa muassasalarda turgan yetim bolalar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek qariyalar uylaridagi shaxslarni yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tegishincha tarbiya, davolash muassasalari va boshqa muassasalar, shuningdek qariyalar uylari rahbarlarining ***xatlariga asosan*** MvaFRB tomonidan amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalariga jazoni o‘tash uchun keltirilgan shaxslarni turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish jazoni ijro etish muassasalari rahbarlarining ***xatlariga asosan*** MvaFRB tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston fuqarolarini yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi. (BHMning 2%).

Yashash joyi va turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish zarur bo‘lgan muddatlar- O‘zbekiston fuqarolari o‘z yashash joyi yoki turgan joyi o‘zgargan taqdirda, yangi yashash joyiga yoki turgan joyiga kelgan kundan e’tiboran **o‘n ish kunidan** kechiktirmay tegishincha yashash joyi yoki turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishi shart.

Qyidagi O‘zbekiston hududlari bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqi cheklanishi mumkin:

- chegara zonasida;
- yopiq harbiy shaharchalarda;
- yopiq ma’muriy-hududiy tuzilmalarda;
- tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalarda, shuningdek fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligiga tahdid soladigan boshqa joylarda;
- yuqumli kasalliklarning hamda yuqumli bo‘lmagan ommaviy kasalliklarning tarqalishi, odamlarning zaharlanish xavfi mavjud bo‘lganligi munosabati bilan aholining yashashi hamda xo‘jalik faoliyati uchun alohida shartlar va rejimlar joriy etilgan ayrim hududlarda hamda aholi punktlarida;
- o‘ta muhim va toifalangan obyektlarda;
- favqulodda yoki harbiy holat e’lon qilingan hududlarda.

O‘zbekiston fuqarolarini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishni quyidagilar amalga oshiriladi:

- IIOning MvaFRBda (shaxsan murojaat qilinganda);
- davlat xizmatlari markazlarida (shaxsan murojaat qilinganda);
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali (xabardor qilish tartibida)

Yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Turar joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydonini berish to‘g‘risidagi **arizasini** (roziligini), shaxsan borish imkoni mavjud bo‘lmaganda esa uning (ularning) notarial tartibda tasdiqlangan arizasini (roziligini);
2. Turar joy mulkdorining (mulkdorlarining) pasporti yoki ID-kartasini;

3. Ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxsning pasporti yoki ID-kartasini;

4. O‘n olti yoshga to‘lmagan bola arizada ko‘rsatilgan taqdirda, uning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasini yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni;

5. Vasiylikdagi (homiylikdagi) bola yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) bola arizada ko‘rsatilgan taqdirda, vasiylikni (homiylikni) tasdiqlovchi hujjatlarni yoki bolani oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvni.

Nazarda tuting - O‘z ota-onasining yoki ota-onasidan birining (yolg‘iz otasining yoki onasining) yashash joyi manzilida bolani yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishda mulkdorning (mulkdorlarning) turar joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) talab etilmaydi.

O‘zbekiston fuqarolarini korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tasarrufidagi xizmat turar joyida (yotoqxonada) yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish turar joyning hujjatiga (orderga) yoki mazkur korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining yozma ruxsatiga asosan MvaFRBda (shaxsan murojaat qilinganda) amalga oshiriladi.

Hujjatlarni qabul qilgan mas’ul xodimning harakatlari.

1. Hujjatlarning haqiqiyligini tekshiradi,

2. O‘zbekiston fuqarosini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnomani (arizani) shakllantiradi,

3. Elektron so‘rovnomaga (arizaga) taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni kiritadi,

4. Elektron so‘rovnoma (ariza) ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxs tomonidan foydalanuvchini identifikatsiya va verifikatsiya qilish vositalari orqali tasdiqlanadi, zarur bo‘lgan taqdirda esa ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxs tomonidan elektron so‘rovnomaning (arizaning) qog‘ozdagi ko‘chirma nusxasi imzolanadi,

5. Shakllantirilgan elektron so‘rovnoma (ariza) “Manzil” tizimiga yuklanadi.

6. Yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan shaxsga yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganlik to‘g‘risidagi elektron va (yoki) qog‘oz shaklidagi ma’lumotnoma rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston fuqarosini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnomani (arizani) ko‘rib chiqish muddati ***bir ish kunidan*** oshmasligi kerak.

O‘zbekiston fuqarolarini turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishni quyidagilar amalga oshiriladi:

- IIOning MvaFRBda (shaxsan murojaat qilinganda);
- IIOning tayanch punktlarida va mahalla huquq-tartibot maskanlarida (shaxsan murojaat qilinganda);
- davlat xizmatlari markazlarida (shaxsan murojaat qilinganda);
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali (xabardor qilish tartibida);
- “E-xabar berish” tizimi orqali (xabardor qilish tartibida);
- joylashtirish vositalarida yoki davolash muassasalarida “E-mehmon” tizimi orqali (xabardor qilish tartibida) amalga oshiriladi.

O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganligi mavjud emasligi uni turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun asos bo‘lmaydi.

Turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Turar joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydonini berish to‘g‘risidagi **arizasini** (roziligini), shaxsan borish imkoni mavjud bo‘lmaganda esa uning (ularning) notarial tartibda tasdiqlangan arizasini (roziligini);

2. Turar joy mulkdorining (mulkdorlarining) pasportini yoki ID-kartasini;

3. Ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxsning pasportini yoki ID-kartasini;

4. O‘n olti yoshga to‘lmagan bola arizada ko‘rsatilgan taqdirda, uning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasini yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni;

5. Vasiylikdagi (homiylikdagi) bola yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) bola arizada ko‘rsatilgan taqdirda, vasiylikni (homiylikni) tasdiqlovchi hujjatlarni yoki bolani oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvni.

Nazarda tuting - Soliq organlarida hisobga olingan turar joyning ijara shartnomasi taqdim etilganda turar joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydonini berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) talab etilmaydi bunda, turar joyning ijara shartnomasida ko‘rsatilgan, ammo bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

O‘z ota-onasining yoki ota-onasidan birining (yolg‘iz otasining yoki onasining) turgan joyi manzilida bolani turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishda mulkdorning (mulkdorlarning) turar joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) talab etilmaydi.

O‘zbekiston fuqarolarini korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tasarrufidagi xizmat turar joyida (yotoqxonada) turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish mazkur korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining yozma ruxsatiga asosan MvaFRBda (shaxsan murojaat qilinganda) amalga oshiriladi.

Hujjatlarni qabul qilgan mas’ul xodimning harakatlari.

1. Hujjatlarning haqiqiyligini tekshiradi,

2. O‘zbekiston fuqarosini turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnomani (arizani) shakllantiradi,

3. Elektron so‘rovnomaga (arizaga) taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni kiritadi,

4. Eelektron so‘rovnoma (ariza) ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxs tomonidan foydalanuvchini identifikatsiya va verifikatsiya qilish vositalari orqali tasdiqlanadi, zarur bo‘lgan taqdirda esa ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxs tomonidan elektron so‘rovnomaning (arizaning) qog‘ozdagi ko‘chirma nusxasi imzolanadi.

5. Shakllantirilgan elektron so‘rovnoma (ariza) “E-xabar berish” tizimiga yuklanadi.

6. Turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan shaxsga turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganlik to‘g‘risidagi elektron va (yoki) qog‘oz shaklidagi ma’lumotnoma rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston fuqarosini turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnomani (arizani) ko‘rib chiqish muddati bir ish kunidan oshmasligi kerak.

Agar turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganlik muddati tugagan bo‘lsa, ammo shaxs ushbu joyda bo‘lishni davom ettirsa, u o‘n ish kuni ichida turgan joyi bo‘yicha yangidan ro‘yxatdan o‘tishi zarur.

Joylashtirish vositasida turgan O‘zbekiston fuqarosini turgan joyi bo‘yicha xabardor qilish tartibida “E-mehmon” tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tkazish uchun joylashtirish vositasining mas’ul xodimi tomonidan O‘zbekiston fuqarosini turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnoma shakllantiriladi, elektron so‘rovnomaga ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxsning pasportida yoki identifikatsiyalovchi kartasida (bolaning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasida) ko‘rsatilgan ma’lumotlar kiritiladi.

Davolash muassasasida statsionar sharoitda davolanayotgan O‘zbekiston fuqarosini turgan joyi bo‘yicha xabardor qilish tartibida “E-mehmon” tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davolash muassasasining mas’ul xodimi tomonidan O‘zbekiston fuqarosini turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnoma shakllantiriladi, elektron so‘rovnomaga ro‘yxatdan o‘tayotgan shaxsning pasportida yoki

identifikatsiyalovchi kartasida (bolaning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasida) ko‘rsatilgan ma’lumotlar kiritiladi.

O‘zbekiston fuqarolarining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish MvaFRB tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston fuqarosi yangi yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganda;
- Turar joy mulkdorining arizasiga ko‘ra — turar joyga bo‘lgan mulkiy huquqlarga yoki turar joy mulkdori bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo‘lmagan O‘zbekiston fuqarosiga (bundan mazkur shaxslarning turar joydan foydalanish huquqi sud tomonidan belgilanganligi yoki taraflar o‘rtasida kelishuv mavjudligi hollari mustasno) yoxud Qonunning 20-moddasida belgilangan uy-joy maydonining ijtimoiy normasiga rioya qilingan holda yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston fuqarosiga nisbatan;
- O‘zbekiston fuqarosi xorijga doimiy yashashga ketayotganda;
- Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan O‘zbekiston fuqarosining notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnomasi yoki roziligi asosida;
- O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi shaxsiy murojaati yoki boshqa shaxsning notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma asosidagi murojaati bo‘yicha.

O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish sud tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- uy-joy maydonining ijtimoiy normasi qo‘llanilmagan holda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsning yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan;
- shaxsni turar joydan foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risidagi, shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi, shaxsni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi yoki shaxsni turar joydan ko‘chirish haqidagi sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan;
- shaxsning qalbaki hujjatlar yoki haqiqatga mos kelmaydigan hujjatlar asosida yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligi, shuningdek O‘zbekiston fuqarosini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazgan mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari aniqlanganda — sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmiga asosan;
- shaxsga nisbatan umrbod ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazo tayinlanganda — sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmiga asosan.
- Turar joydan foydalanish huquqi sud tomonidan belgilangan shaxslarning roziligisiz ularning yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish faqat sudning qaroriga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi axborot tegishincha MvaFRB hamda sudlar tomonidan “Manzil” tizimiga kiritiladi.

Nazarda tuting - O‘zbekiston Respublikasining o‘n olti yoshga to‘lmagan fuqarolarining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish ularning ota-onasining (yolg‘iz otasining yoki onasining), yoki vasiylarining (homiylarining) yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Nazarda tuting - O‘zbekiston fuqarosi vafot etganda uning yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish o‘lim haqidagi guvohnomani rasmiylashtirish chog‘ida FHDY organlaridan idoralararo axborot almashish tizimi orqali olingan ma’lumotlarga yoki o‘lim haqidagi guvohnoma taqdim etilganda turar joy mulkdorining arizasiga asosan MvaFRB tomonidan amalga oshiriladi.

Turar joy mulkdori (mulkdorlari) O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish uchun MvaFRBga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi arizani;

2. Turar joy mulkdorining (mulkdorlarining) pasportini (yashash guvohnomasini) yoki identifikatsiyalovchi kartasini;

3. Turar joyga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi va yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganlikni bekor qilish uchun asos bo‘lgan hujjatni.

O‘zbekiston fuqarosi o‘zining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish uchun MvaFRBga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi arizani;

2. Pasportini yoki identifikatsiyalovchi kartasini;

3. O‘n olti yoshga to‘lmagan bola arizada ko‘rsatilgan taqdirda, uning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasini yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni.

Xorijda doimiy yashashga ketish uchun ruxsat olgan O‘zbekiston fuqarosi o‘zining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish uchun MvaFRBga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi arizani;

2. O‘zbekiston fuqarosining xorijga chiqish uchun biometrik pasportini;

3. O‘n olti yoshga to‘lmagan bola arizada ko‘rsatilgan taqdirda, ushbu bolaning xorijga chiqish uchun biometrik pasportini.

Hujjatlarni qabul qilgan mas’ul xodimning harakatlari.

- Hujjatlarning haqiqiyligini tekshiradi,
- O‘zbekiston fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnomani (arizani) shakllantiradi,
- Elektron so‘rovnomaga (arizaga) taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar kiritiladi,
- Elektron so‘rovnoma (ariza) ariza beruvchi tomonidan foydalanuvchini identifikatsiya va verifikatsiya qilish vositalari orqali tasdiqlanadi, zarur bo‘lgan taqdirda esa mazkur shaxs tomonidan elektron so‘rovnomaning (arizaning) qog‘ozdagi ko‘chirma nusxasi imzolanadi,
- Shakllantirilgan elektron so‘rovnoma (ariza) “Manzil” tizimiga yuklanadi.

Nazarda tuting - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilganligini bekor qilish to‘g‘risidagi elektron so‘rovnomani (arizani) ko‘rib chiqish muddati ***bir ish*** kunidan oshmasligi kerak.

Nazarda tuting - Uy-joy maydonining ijtimoiy normasi bir kishi hisobiga ***o‘n olti kvadrat metrdan*** kam bo‘lmagan umumiy maydon hajmida, o‘rindiqli aravachada harakatlanadigan nogironlar uchun esa ***yigirma uch kvadrat*** metrdan kam bo‘lmagan hajmda belgilanadi.

Quyidagi O‘zbekiston fuqarolariga yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishi chog‘ida o‘ziga nisbatan uy-joy maydonining ijtimoiy normasi qo‘llanilmaydi:

- erga (xotinga) nisbatan — bir-birining yashash joyi bo‘yicha uy-joy maydoniga;
- ota-onalar, farzandlarga nisbatan — bir-birining yashash joyi bo‘yicha uy-joy maydoniga;
- buva, buvi, nevaralarga nisbatan — bir-birining yashash joyi bo‘yicha uy-joy maydoniga;

- vasiylikdagi (homiylikdagi), shuningdek oilaga tarbiyaga olingan (patronat) shaxslarga nisbatan — vasiyning (homiyning), tutingan otaning yoki onaning yashash joyi bo‘yicha uy-joy maydoniga;

- aka-ukalar, opa-singillarga nisbatan — bir-birining yashash joyi bo‘yicha uy-joy maydoniga;

- ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarga nisbatan — oldingi yashash joyiga, ya’ni o‘z oila a’zolarining, qarindoshlarining yoki hukm qilinguniga qadar o‘zi birgalikda yashab turgan boshqa shaxslarning uy-joy maydoniga.

Yashash joyi va turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- Qonunda ko‘rsatilgan tegishli hujjatlarning taqdim etilmaganligi;
- taqdim etilgan ma’lumotlarning haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi;
- davlat bojini to‘lamaganlik;
- turar joyni o‘tkazib berish uchun taqiq qo‘yilganligi va (yoki) xatlab qo‘yilganligi;
- Qonunning 8-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘ylab erkin harakatlanishga, turar va yashash joyini tanlash huquqiga nisbatan cheklovlar joriy etilganligi;
- Qonun 20-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talabning buzilganligi.

Yashash joyi va turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishni boshqa asoslarga ko‘ra rad etish taqiqlanadi. Yashash joyi va turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilganligi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Shaxsning yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganligi unda o‘zi ro‘yxatdan o‘tgan turar joyga (uy-joy maydoniga) bo‘lgan mulk huquqi kelib chiqishiga olib kelmaydi.

Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari hamda mahalla huquq-tartibot maskanlari profilaktika katta inspektorlari va profilaktika inspektorlari o‘zlari xizmat qilayotgan hududda yashash joyi va turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish qoidalariga rioya etilishini ta’minlash uchun javobgardir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda fuqarolarni ro‘yxatga olish tizimining liberallashtirilishi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida ro‘yxatdan o‘tish jarayoni osonlashdi va korrupsion holatlar kamaydi. Biroq, amaliyotda ijara shartnomalarini rasmiylashtirish va masofadan ro‘yxatga olishda ayrim texnik to‘siqlar saqlanib qolmoqda. Tizimni takomillashtirish uchun ro‘yxatdan o‘tish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish va idoralararo ma’lumotlar almashinuvini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. 2025-yilda qabul qilingan O‘RQ-1074-sonli Qonun O‘zbekistonda fuqarolarni ro‘yxatga olish tizimini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirdi. Ushbu qonun bilan ro‘yxatga olish tartibini buzganlik uchun belgilanadigan javobgarlik choralari optimallashtirildi va tizimning shaffofligi oshirildi. Ro‘yxatga olish jarayonlarining to‘liq elektron shaklga o‘tkazilishi aholining ortiqcha sarson bo‘lishining oldini oladi. Kelgusida mazkur yo‘nalishdagi islohotlar fuqarolarning yashash joyidan qat’i nazar barcha davlat xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 10.07.2025 yildagi O‘RQ-1074-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi PF-5984-sonli “Doimiy propiska qilish va turgan joyi bo‘yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-dekabrdagi 820-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
5. Karimov A.X. O‘zbekistonda migratsiya huquqi va aholini ro‘yxatga olish tizimi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Adolat, 2022. – 85-b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz